

AI-80 markali benzinning birjadagi narxi 2% ga ko'tarildi, paxta yog'i, suyultirilgan gaz narxi pasaydi



AI-80 markali benzinning birjadagi narxi 2% ga ko'tarildi, paxta yog'i, suyultirilgan gaz narxi pasaydi

Joriy yil yanvar oyida sotuvchi korxonalar har kuni birja savdolariga o'rtacha 4 307 tonna AI-80 markali benzini qo'yib kelishgan bo'lsa, may oyida ushbu ko'rsatkich 3 022 tonnagacha (30% ga) pasayib ketgan.

May oyida (<https://t.me/reviewuznews/4961>) AI-80 markali benzinning birjada shakllangan o'rtacha narxi mahsulotning bir tonnasi uchun 8 208,9 ming so'mdan 8 345,1 ming so'mgacha, ya'ni 2% ga ko'tarilgan.

Birja savdolarida paxta yog'ining bir tonnasi 18 051,4 ming so'mdan 17 190,3 ming so'mgacha, ya'ni 4,8% ga pasaygan.

Birja savdolarida suyultirilgan gazning bir tonnasi uchun 5 551,7 ming soʻmdan 5 370,9 ming soʻmgacha, yaʼni 3,3%ga pasaygan.

Birja savdolarida paxta tolasining bir tonnasi uchun 36 858,0 ming soʻmdan 35 185,3 ming soʻmgacha, yaʼni 4,5% ga pasaygan.